

The Role and Prospects of Hazorasp Free Economic Zone in The Development of The Economy of Khorezm Region

Sobirov Javokhir Khairulla oglu
Student of Urgench State University
Allaberganova Noila Shukhrat qizi
Student of Urgench State University
Bozorova Nilufar Oybek qizi
Student of Urgench State University

Annotation: This article describes the establishment of the Hazarasp Free Economic Zone (hereinafter referred to as FEZ) in Khorezm region, its specific economic and geographical features, including economic and geographical location, natural resources and transport infrastructure, as well as utilities and labor resources. location, as well as short-term achievements and future development. Numerous guidelines and scientific literature, as well as relevant laws, decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan, resolutions of the Cabinet of Ministers, as well as websites were used in the development of scientific recommendations and proposals for the Hazarasp FEZ.

Keywords: Free economic zone, investment, investor, export, import, customs duties and tax benefits..

Kirish:

Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida bir qator chora tadbirlar va rivojlantirish konsepsiyasilarini ishlab chiqilgan. Mustaqillik yillarida viloyat hududida EIZ va kichik sanoat zonalarini tashkil etish borasida ishlar olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931 sonli farmoniga ko'ra tashkil qilingan Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonasi va uning filiallarining joylashuvi va ularning Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan amaliy ahamiyatlari haqida mazkur maqolada to'xtalamiz.

NAZARIY ASOS: Erkin iqtisodiy zonalar nima?

Davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo'jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan muayyan hududlar. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi.

EIZ - ko'p hollarda davlatlararo tutash hududlarda (bir necha davlatlarning chegaralari tutashgan hudud), xalqaro aeroportlar, port shaharlarda yoki transport yo'llari tutashgan hududlarda tashkil etiladi. EIZlarda alohida xalqaro huquqiy status joriy etiladi. Lekin u qayerda joylashishidan qat'i nazar, shu mamlakatning ajralmas bo'lagi hisoblanadi, barcha amaliyotlar (yer ajratish, firma va kompaniyalarni tashkil etish, chegaradan yuklarni, tovarlarni olib kirish va olib chiqish, boj to'lovlari, soliq to'lovlari bo'yicha imtiyozlar, qaysi valyuta yoki valyutalar to'lov vositasini o'tashi, hududni boshqarish tartibi va boshqalar) qabul qilingan qoidalar asosida tezkorlik bilan bajariladi.


Natijalar

O'zbekistonda EIZ g'oyasi milliy iqtisodiyot taraqqiyoti uchun ijobiy baholandi. Shu bois 1996-yilning 25-aprelda mamlakat parlamenti O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida" qonunini qabul qildi [1].

Bu qonun chet el investitsiyalari, savdo va sanoat sohalarining rivojlanishi, aholini ish bilan ta'minlashni yaxshilash uchun qulay sharoit yaratishga me'yoriy huquqiy asos yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi PF-4931-sonli farmoniga ko'ra tashqi bozorlarda talab yuqori va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan mineral-xom ashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga xorijiy va

mahalliy investisiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni yaratish, shuningdek, Xorazm viloyatining ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o'rinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, hamda Xorazm viloyati hokimlikining Xorazm viloyati Hazorasp tumanida — "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi [2].

EIZning umumiy maydoni 414 ga (gektar), "Urganch" , "Xiva" , "Bog'ot" tumanlarida 3 ta filiali faoliyat ko'rsatmoqda [5]. (1-rasmda ko'rsatilgan karta-sxemaga qarang).



1-rasm. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi EIZlar karta sxemasi. [3]

Mazkur EIZ Xorazm viloyati sanoatini lokomotiviga aylandi va oz muddatda 19 ta loyiha amalga oshirildi. Bu amalga oshirilgan loyihalarning eng asosiysi bu "UzAuto Motors" AJ ning Pitnak filiali hisoblanadi. Ushbu zavodda Chevrolet brendi ostida Chevrolet Orlando, Chevrolet Labo, Damas avtomobillari ishlab chiqariladi. Erkin iqtisodiy zonada undan tashqari yana ko'plab yirik korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda bu korxonalar tufayli nafaqat Hazorasp tumani aholisi balki butun Xorazm viloyati va Respublikamizning turli viloyatlaridan hamda xorijiy davlatlardan kishilar mehnat qilishadi.[4]

"Hazorasp" EIZda chet el sarmoyasi va mahalliy sarmoyadorlar hisobiga ko'pgina turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Nega-ki bu yerda arzon ishchi kuchi va elektr energiyasi yetarlicha. "Hazorasp" EIZ nafaqat Xorazm viloyatidagi balki Respublikamizdagi eng yirik erkin iqtisodiy zonalaridan biri hisoblanadi. Yuqoridagi Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi EIZlarni karta-sxemasida Xorazm viloyatidagi "Hazorasp" EIZ va uning filiallarini ko'rishingiz mumkin. Mazkur filiallar sonini kelajakda yanada ko'paytirish maqsadga muvofiq ish sanaladi.

Xulosa:

Xorazm viloyati hududida "Hazorasp" EIZ kabi boshqa yo'nalishdagi iqtisodiy hududlarni ko'proq tashkil etish, hamda ularda mahalliy va xorijiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratish, shu bilan birga import o'rnini bosuvchi-eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek tashkil qilingan EIZlar rivojini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Xorazm viloyatining tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda mavjud xomashyo va ishchi kuchidan foydalanib juda katta bo'lmagan, sanoat korxonalarini qurish yaxshigina natijalar berishi mumkin.

Tumanlarda "Hazorasp" EIZning yangi filiallarini ochish, xususan Shovot, Gurlan, Yangibozor, Ko'shko'pir va Xonqa tumanlarida ish boshlasa aholi bandligini ham oshadi hamda ushbu tumanlarning iqtisodiy rivojlanishga erishishiga olib keladi. Nega-ki, bu tumanlarda deyarli barchasida qulay tabiiy sharoit, shuningdek temir yo'l va avtomobil transportining rivojlanganini aytish mumkin. Shuni, alohida ta'kidlash lozimki mazkur tadbirlar amalga oshirilsa Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga va aholining bandligini ta'minlashga erishish, asnosida ularning turmush tarzining yuksalishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida" Qonunini. Toshkent. 25.04. 1996 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Urgut, Gujduvon, Qo'qon va Hazorasp EIZlarini tashkil qilish to'g'risidagi" 2017 yil 12 yanvardagi PF-4931-sonli Farmoni.
3. Amanov A.K. "Quyri Amudaryo iqtisodiy rayonidagi erkin iqtisodiy zonalarining mintaqaviy iqtisodiyotining rivojlanishidagi o'rni". Qoraqalpoqiston davlat universiteti. "Zamonaviy geografik tadqiqotlarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlanishi, tabiatdan oqilona foydalanish va turizm masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Nukus 26-27 oktabr 2021.
4. Amanov A.K., Yusupov I.Q., Otajonov R.P. "Quyri Amudaryo iqtisodiy rayonida erkin iqtisodiy hamda kichik sanoat zonalarining shakllanishi". Qoraqalpoqiston davlat universiteti. "Janubiy Orolbo'yi tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish" mavzusidagi VIII-respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Nukus 2019.
5. www.hfez.uz